

O'G'UZ SHEVALARIDAGI POLISEMANTIK SO'ZLARNING LEKSIK QATLAMLARI (ARAB TILIDAN KIRIB KELGAN SO'ZLAR)

Sa'dullayeva Mohira Sobirovna

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada M.Begaliyevning "Qorabuloq shevasi" kitobidagi lug'at tarkibida kelgan o'g'uz lahjasidagi ko'p ma'noli so'zlarning ma'lum bir qismi arab tiliga mansub ekanligi tahlil qilingan. So'zlar lug'atdan aynan olingan va "O'zbek tilining izohli lug'ati"da kelib chiqishi, mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarning har biriga gaplar orqali misollar keltirilgan.

Key words. Sheva, dialektologiya, lahja, polisemija, leksik qatlam, lug'at, arab tili, tahlil, adabiy til, fonetik hodisa.

Adabiy til tushunchasining hajmi va qo'llanilish doirasini lahja va shevalar bilan birga tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Dialektologiya bo'limi tilshunoslikda shevalarni o'rganuvchi bo'lim sanaladi. Adabiy tilda qo'llanilmaydigan, ma'lum hudud doirasida keng qo'llanilib, shu hududda yashovchi aholi vakillarigagina tushunarli bo'lgan shevalar vaqt o'tib o'rni bilan adabiy tilga qabul qilinishi haqida ma'lumotga egamiz.

XX asrning 50-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab shevalarga nisbatan amaliy ishlari olib borish, fikr almashish va fanning dialektologiya deb atalmish sohasiga jiddiy e'tibor qaratish boshlangan. Bu yo'lida juda ko'p olimlarning zahmatli yo'llari va ilmiy ishlari sababli sheva yo'nalistida ko'plab bilimlarga egamiz. Shevalarni tadqiq qilishda juda ko'p tarmoqlarga bo'lib o'rganish mumkin. Dastlab, lahjalarining qarluq, qipchoq, o'g'uz kabi tarmoqlarga bo'linishi, tarkibiy qismlari tahlil qilinishi ishning yo'nalistilarini aniqlab beradi.

Ilmiy va diniy adabiyotlar arab tilini, fors-tojik mumtoz adabiyoti, shuningdek, yonma-yon yashash va aloqalar tojik tilini o'zbek urug'lari tiliga fonetik, leksik-semantik ta'sir o'tkazganini ta'kidlash lozim. Shuning natijasida, o'zbek tilida o'zgarishlar, so'zlarda torayish va kengayish, orfoepik, orfografik xususiyatlar o'zini namoyon etgan va bugungi kunda ham davom etmoqda.

O'g'uz laahjasi leksikasining asosiy qismini o'zbek adabiy tilida ishlatiladigan umumturkiy so'zlar tashkil qiladi. Shevalar leksikasida forscha so'zlar arabcha so'zlarga qaraganda ko'pchilikni tashkil etadi.

Quyida M.Begaliyevning "Qorabuloq shevasi" asaridagi lug'at tarkibida kelgan arabcha polisemiyalar misollar keltirish orqali fikrimizni mustahkamlaymiz. Ishimizning yo'nalishi esa o'g'uz lahjasiga xos polisemantik so'zlardir. Ularning leksik qatlamlaridan o'zlashgan so'zlarga murojaat qilamiz. Arab tilidan kirib kelgan va iste'molda bo'lgan leksemalarning tahlili, bugungi kunda ularning ishlatilish yoki ishlatilmasligi, shuningdek, fonetik o'zgarishlarini izohlaymiz. Shuni ta'kidlash joizki, asl turkiy so'zlar asosiy qismni tashkil etadi, lekin biz hozir arab tilidan o'zlashgan so'zlar haqida fikr

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

yuritamiz. Demak, M.Begaliyevning “Qorabuloq shevasi”da 35 dan ortiq polisemantik so‘z ajratib olindi, shundan arab tiliga mansub polisemiyalar quyidagilar:

(So ‘zlar lug‘atda keltirilganidek aynan yozildi)

1. Әмәл (араб) 1. Кундалик иш, фаолият. 2. Мансаб, мартаба, лавозим. 3. Чора, илож. 4. Математик ҳисобнинг ҳар бир тури. Түрт амал.

“Amal” so‘zi bugungi kunda ham nutqimizda faol ishlatalinadi, hatto adabiy tilda mavjud so‘zlar qatorida turadi. Polisemiyalarning ma’nolariga to‘xtaladigan bo‘lsak, quyidagi gaplarni keltiramiz. Demak, birinchi ma’noda: *Sen shu amalingni hech qo ‘ymading*. Ikkinci gapda: *Shu amalda yana qancha faoliyat yuritmoqchisan?* Uchinchi ma’noga ko‘ra, *Bir amal qilish kerak yoki tamom bo‘lamiz*. Ko‘p ma’noli so‘zning to‘rtinchisi izohiga: *Doskaga yozilgan amallarni bajaring*.

2. Азамат (араб) 1. Баҳодир, бақувват. 2. Фуқаро (гражданин). Қорабулок шевасига иккинчи-фуқаро маъноси қозоқ тилидан ўтган.

“Azamat” so‘zi haqiqatan ham bahodir, baquvvat so‘zlariga sinonim bo‘la oladi va bugungi kunda keng qo’llaniladi. *Qadim o‘tgan zamonda to‘rt azamat aka-uka bo‘lgan ekan*. Gapda yozilganiga ko‘ra sifat bo‘lib kelgan so‘z ot vazifasida ham kela oladi. *Qadim o‘tgan zamonda to‘rt azamat bo‘lgan ekan*. Ikkı gap tahlilida (balki) otlashgan sifat deb izohlashimiz mumkin. Yakka gap holida esa ot so‘z turkumi bo‘ladi va shu jarayonda kim so‘rog‘iga javob bo‘lganda, to‘rt Azamat, to‘rt fuqaro ma’nosida kelishini kuzatish mumkin. Ta’kidlanganidek, ikkinchi ma’nosi qozoq tilidan o‘tgan.

3. Бай (турк) 1. Бой-бадавлат. 2. Эр-хотин кишининг турмуш ўртоғи. “Ўзбек тилининг изоҳли лугати” да “бай” сўзи арабча берилган, маъноси эса “савдолашиш”, “сотиш”, “келишиш”.

Navbatdagi so‘zimiz kichik tahlilni talab etadi. Bu yerda bir xil yozilgan so‘zning ikki tilda ikki xil ma’no anglatishi kuzatiladi. Demak, birinchi ma’nosida badavlat, ikkinchi ma’nosida turmush o‘rtoq. Bugungi kunda fonetik o‘zgarish ya’ni orfoepiya va orfografiya nuqtayi nazaridan tovush almashish hodisasi kuzatiladi, bugun nutqimizda “boy” shaklida ishlatalamiz. O‘zbek tilining izohli lug‘atida bay so‘zining yana bir arab tilidan o‘tgan ma’nosi bo‘lib, “savdolashish”, “sotish” demakdir.

4. Мырза (араб+форс) 1. Котиб. 2. Саводли йигит. 3. Жаноб. 4. Эркаклар исми. (“қўли очиқ, сахий” маънолари ҳам мавжуд)

Ushbu so‘z adabiy tilda ham, shevada ham, hatto tarixiy so‘zlar tarkibida ham qo’llaniladi. Kelib chiqishiga ko‘ra arabcha va forscha deb berilgan. Leksemaning birinchi ma’nosiga izoh bersak: *Salim mirza bugun hujjatlarni qabul qiladi*. Ikkinci ma’noga sharh: *U juda ham mirzo yigit*. Uchinchi ma’nosi o‘zida “janob” so‘zini ifodalashi lozim: *Alisher mirza yigitlar safiga kirib qoldi*. Nihoyat, to‘rtinchisi ma’no ayini shaxsning ismi ma’nosida qo’llaniladi. *Mirza Azizov unitilmash rollari bilan qalbimizdan joy olgan*.

Navbatdagi e’tiborga molik jihat shundaki, ushbu so‘z leksikonimizda “mirza” va “mirzo” shaklida baravar qo’llanilib kelinadi.

5. Овқат (арабча) 1. Емиш, таом, емак. 2. Тирикчилик учун даркор нарсалардан ташқари “хол-аҳвол, турмуш даражаси”.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Beshinchi so‘zimiz O‘zbek tilining izohli lug‘atida aynan uchraydi va ma’nosи mavjud. “*Ovqatni suzmaysanmi?*”, - *deb baqirdi u. shevalarda fonetik o‘zgarishga uchragan holda*, “*avqot*” shaklida ham uchraydi.

6. Ҳәләк (араб) 1. Ўлмоқ. 2. Қийналмоқ, сарсон бўлмоқ. Озар. һәлак 1. Ўлмоқ.
2. Қаттиқ қийналмоқ .

O‘zbek adabiy tilida “halok” va “halak” shaklida uchraydigan ushbu so‘z shevalarda ham faol qo‘llaniladi. Birinchi ifodalangan ma’nosiga ko‘ra quyidagi gapni keltiramiz: *U jangda mardlarcha halok bo‘ldi. Ikkinci ma’no mohiyati: Orzular ortidan quvib halak bo‘ldi.* Demak, fonetik hodisaga ko‘ra, tovush o‘zgarish hodisasi uchragan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi // darslik// T.: “Navro‘z” 2016
2. М.Бегалиев. Ўзбек тилининг қорабулок шеваси лексикаси. Т.:2007.
3. Ф.Абдуллаев. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари 1., Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти. Т.: 1961
4. О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси лексикасини ўрганиш масалалари. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Т.: 1973.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. “O‘zbekiston” nashriyoti. T.: 2021.
6. Ўзбек халқ шевалари луғати. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Т.: 1971.
7. А.Ишаев. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. Аҳмад Ишаев. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Т.: 1977.
8. О.Мадраҳимов. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. Урганч 1999.
9. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: 2008.
10. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент, Фан, – 1967
11. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозогистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981.